

	birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b. 5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz. Axborot manbalari 6. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. 7. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 8. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi)
7.	Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020__ yil <u>“29” 08</u> dagi <u>4</u> -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020__ yil <u>“29” 08</u> dagi <u>452</u> - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas’ul: Turdiyeva O. – ToshDShU “Xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti” kafedrası o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: U. Muhibova– TDSHU “Hind filologiyasi” kafedrası professori, filologiya fanlari doktori; A. Tilavov – A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



“KELISHILDI”

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim
vazirligi



MUTAXASSISLIKNING NAZARIY MASALALARI (FORS)

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000 – Gumanitar soha
Mutaxassislik:	5A120101 – Adabiyotshunoslik (sharq tillari)

Toshkent -2020

	jihatlarini ko'rsata olish, muallif tasvirlagan badiiy manzara va kitobxon idrok etgan badiiy manzarani prognoz qilish bo'yicha <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • talaba adabiy asardan o'zi yashayotgan davrga muvofiq xulosa chiqarish; adiblar ijodida inson ruhiyati kamolini ko'rsata olish; badiiy asardan xulosa chiqarish, to'g'ri tadqiq qilish tahlilchining saviyasi, dunyoqarashi va boshqa omillar bilan bog'liqligi to'g'risida aniq <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • amaliy mashg'ulotlar; • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlar tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Dilmurod Qur'onov. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, 2018. 2. Turdiyeva O. Hozirgi zamon Eron hikoyanavisligi. Toshkent, 2015. 3. Ibrohim G'afurov. Oltin qoziq. Toshkent, 2017/ Qo'shimcha adabiyotlar 1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11. 2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b. 3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. - 48 b 4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan

Kurs ishi uchun quyidagi tahminiy mavzular tavsiya etiladi:

1. Mumtoz davr sharq xalqlari adabiyotida nasriy janrlarning o'ziga xosligi
2. Mumtoz davr sharq xalqlari adabiyotida nazmiy janrlarning o'ziga xosligi
3. Zamonaviy davr sharq xalqlari adabiyotida nasriy janrlarning o'ziga xosligi
4. Zamonaviy davr sharq xalqlari adabiyotida nazmiy janrlarning o'ziga xosligi
5. Sharq xalqlari adabiyotida badiiy asar talqini va tanqidi
6. XX asr boshi sharq xalqlari adabiyotiga G'arb madaniyatining ta'siri masalalari
7. XX asr boshi sharq xalqlari adabiyotida adabiy jarayonlar
8. Sharq xalqlari adabiyotida badiiy asarni biografik, psixologik, immanent va struktural tahlil qilish jarayonlari
9. Sharq xalqlari adabiyotida muttasil rivojlanayotgan janr –romanchilik
10. Sharq xalqlari adabiyotida mustamlakachilikka qarshi kurash va istiqloq masalalarining yoritilishi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Lev Tolstoy ijodidan fors tiliga tarjimalar
1. Chexov va Eron adabiyoti.
2. Kafka, Sartr, Kamyu ijodining Eron modern adabiyotiga ta'siri.
3. Eronda modern adabiyoti namoyandalari
4. Eron adabiyotshunos olimlari va tanqidchilar ijodi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3. VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Mutaxassislikka oid adabiy asarlarda tahlil va talqin tushunchalarini bilish, talqin jarayonida falsafa, psixologiya va sotsiologiya fanlari yutuqlarini tadbiiq eta olish, badiiy asar tahlilida ob'ektiv va sub'ektiv jihatlarni ajrata olish haqida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;
- Ilmiy yechimlar bo'yicha xulosa va tavsiyalarni shakllantira olish, badiiy adabiyotning ijtimoiy vazifasini aniqlay olish, asarning diqqatga loyiq

Fan/modul kodi 5AMNM125	O'quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Mutaxassislikning nazariy masalalari	60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni			
	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda asl manbalar bilan ishlash, asarning mohiyatini anglashni o'rgatish, asar talqini va tahlili, tahlil tayanadigan tamoyillarni, tahlil jarayonida estetik asoslar ustuvorligini, tahlil yo'nalish va bosqichlarini o'rganish usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir. Fanning vazifasi – talabalarga fors tilida yaratilgan adabiyotlar ustida ishlash jihatlarini tushuntirish, matnni tushunish, fors badiiy matnlarining o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish, muallif obrazini idrok etish, muallifni tushunish, adabiy asarning butun qirralarini anglab yetishni o'rgatishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Adabiyotshunoslik fan sifatida. Adabiyotning mohiyati. Adabiyotshunoslik fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot tarixi, adabiy tanqid adabiyot nazariyasi. Adabiyotshunoslikning yordamchi sohalari. 2-mavzu. Adabiyotning ijtimoiy ong sohasi sifatida. Adabiyot va mafkura. Adabiyotning ijtimoiyligi masalasidagi bahslar va uni yuzaga keltirgan sharoit haqida. Adabiyotning ijtimoiy tabiatini belgilovchi omillar. Ijtimoiy dardning shaxsiyatlanishi. 3-mavzu. Badiiy adabiyot – san'at turi sifatida Estetik faoliyat haqida. San'at tushunchasi. Amaliy va badiiy san'atlar Badiiy adabiyot – so'z san'ati. Badiiy adabiyotning san'at turlari orasidag o'rni va o'ziga xosligi. 4-mavzu. Obrazlilik va badiiy obraz			

Badiiy obraz vositasida tafakkur qilish (obrazlilik) san'atning spesifik xususiyati sifatida. Badiiy obraz tushunchasi. Badiiy obraz xususiyatlari. Inson obrazi va uni yaratish vositalari.

5-mavzu. Adabiy asar haqida. Adabiy asarda shakl va mazmun

"Badiiy asar", "adabiy asar", "adabiy-badiiy asar" istilohlari xususida. Badiiy asar – badiiy kommunikatsiya vositasi. Badiiy ijod jarayoni haqida. Badiiy asar sistem butunlik sifatida.

6-mavzu. Badiiy asar mazmuni. Syujet xususida

Syujet haqida tushuncha. Syujet funksiyalari. Syujet turlari. Syujet va fabula. Syujet komponentlari. Konflikt va uning turlari.

7-mavzu. Adabiy asar kompozitsiyasi

Badiiy asardagi shakl komponentlarini mazmuni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirish. Kompozitsiya asardagi barcha unsurlarni uyushtiruvchi sifatida.

8-mavzu. Epik, dramatik va lirik asar kompozitsiyasi

Epik nutqning kompozitsion shakllari, ularning o'zaro munosabati, lirik asar kompozitsiyasining uch aspekti, dramatik asarning tashqi qurilishi, Ramka unsurlari va ularning funksiyalari.

9-mavzu. Badiiy nutq. Badiiy nutq qurilishi

Badiiy nutq tushunchasi. Istilohlar haqida. Badiiy nutq badiiy informatsiya yetkazish vositasi. Badiiy nutqning spetsifik xususiyatlari. Badiiy nutq shakllari.

10-mavzu. She'riy nutq haqida

O'lchovlilik she'riy nutq ritmikligining asosi sifatida. Ritmik bo'lak tushunchasi. Ritmik vositalar: pauza, urg'u, qofiya, qofiyalanish tartibi. She'riy sintaksis haqida.

11-mavzu. Adabiy tur tushunchasi

Adabiy tur tushunchasi, badiiy adabiyotni turlarga ajratish prinsiplari. Adabiy turlar orasida chegaraning shartliligi. Adabiy turlar mavqeyining o'zgaruvchanligi.

12-mavzu. Adabiy janrlar

Adabiyotshunoslikda "janr" atamasi, janr termini bilan epik, lirik va dramatik turlari, ularning muayyan tarixiy davrdagi namoyon bo'lish shakllari.

13-mavzu. Adabiy yo'nalish va oqimlar

Adabiyotning bilish imkoniyatlari: mimesis va ramzlashtirish. Hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari. Metod va uslub tushunchalari haqida. Adabiy yo'nalish tushunchasi.

14-mavzu. Adabiy jarayon

Adabiyot taraqqiyotining ichki va tashqi omillari, adabiyot va ijtimoiy-tarixiy sharoit, milliy adabiyotlar taraqqiyotidagi stadial umumiylik. Adabiy jarayonni davrlashtirish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Adabiyot nadir" muammosi. Adabiyot haqidagi mavjud ilmiy konsepsiyalar
2. Ijtimoiy ong shakllari Adabiyotning ijtimoiy ong shakllari orasidagi o'ri.
3. Badiiy adabiyot – so'z san'ati. Badiiy adabiyotning boshqa san'at turlari bilan aloqasi
4. Badiiy obraz tushunchasi. Badiiy obraz xususiyatlari. Badiiy obraz turlari
5. "Badiiy asar", "adabiy asar" va "adabiy-badiiy asar" istilohi xususida. Adabiy asarda shakl va mazmun birligi
6. Ijodkor dunyoqarashi va badiiy mazmun. Syujet funksiyalari
7. Eron adiblarning kompozitsiya yaratish mahorati
8. Eron adabiyotida epik, dramatik va lirik asarlarning kompozitsion qismlari
9. Eron adabiyotida badiiy nutqning adabiy til va hamda milliy til tushunchalari bilan munosabati
10. Eron adabiyotida she'riy nutqning nasr tomon siljish jarayoni
11. Badiiy adabiyotni turlarga ajratish prinsiplari
12. Eron adabiyotida adabiy janrlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari
13. Eron adabiyotida realistlik va norealistik metodlar
14. Eron adabiyoti taraqqiyotining ichki va tashqi omillari
15. Eron adabiyotida avtobiografik asarlar tahlili
16. Roziya Tujjor ijodida metodlar qorishiligi

IV. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.